



Ismaylova Ra'no,
*Nizomiy nomidagi TDPU "Amaliy psixologiya" kafedrası
dotsent v.b., psixologiya fanlari nomzodi (PhD)*

O'ZBEKISTONDA YOSH OILALARDAGI ZO'RAVONLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining yosh oilalaridagi zo'ravonlik muammosi, uning turlari, namoyon bo'lishi va ularni bartaraf etish yo'llari kabi dolzarb muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: oila, zo'ravonlik, yosh oila, oiladagi zo'ravonlik, zo'ravonlik turlari, jinoyat, jabrlanuvchi, ijtimoiy-psixologik muammo.

Аннотация. В статье рассматривается такая актуальная проблема, как насилие в молодых семьях Республики Узбекистан, его виды, способы проявления и преодоления.

Ключевые слова: семья, насилие, молодая семья, домашнее насилие, виды насилия, преступление, жертва, социальная-психологическая проблема.

Annotation. The article deals with such an urgent problem as violence in young families of the Republic of Uzbekistan, types of violence, ways of manifestation and overcoming.

Key words: family, violence, young family, domestic violence, types of violence, crime, victim, social and psychological problem.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jadallik bilan kechayotgan paytda yosh oilalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida "yosh oila – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan, nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol)" deb ko'rsatilgan.

Yoshlarni oilaga sadoqat ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash ishlari tizimli tashkil etilmagan. Xususan, yoshlar o'rtasida erta nikoh holatlari, qonuniy rasmiylashtirilmagan nikoh va ajrim holatlari kuzatilmoqda, jumladan, 2020-yilning

11 oyida qayd etilgan 25 000 ta oila ajrimlarining aksariyati yoshlar hissasiga to'g'ri keladi.¹

Oila asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, uning farovonligi jamoat farovonligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois oilada sog'lom muhitni ta'minlash, uning a'zolari tomonidan har qanday tajovuzkorlik va shafqatsizlik ko'rinishlarining oldini olish nihoyatda muhim. Oilaviy zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar oilaviy hayotning ijtimoiy xavfsizligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi

¹ Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарорига 1-илова. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш Концепцияси// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/>

kurashish choralari qo'llash bo'yicha yetarli tajriba to'plangan. Tashkilot va muassasalarning muayyan tizimlari yaratilmoqda, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish, uni bartaraf etish bo'yicha ijtimoiy sheriklik tamoyillariga tobora ko'proq asoslanadigan boshqaruvning aniq modellari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda.

Mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlarning keng doirasiga qaramasdan, oiladagi zo'ravonlik muammosi "gender tenglik" nuqtayi nazaridan keng qaralsa-da, lekin oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi ko'pgina xabarlarida ayollar, bolalar va keksa oila a'zolari zo'ravonlik qurbonlari sifatida tilga olinadi, shu bilan birga, "kuchli jins vakillari" ham zo'ravonlikka uchrashi mumkinligi haqida sukut saqlanadi. "Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi"ning telegram kanalida doimiy ravishda ishonch telefonlariga erkaklarning murojaati bo'yicha statistik ma'lumotlar berib borilar edi, masalan, 2022-yil yanvar-sentabr oylari holati bo'yicha "1146" Ishonch telefoniga jami 5735 ta murojaat kelib tushgan, shundan 5325 ta holat xotin-qizlar tomonidan, 240 tasi voyaga yetmagan bolalar va 170 tasi erkaklar tomonidan. Shu sababli oiladagi zo'ravonlikni tegishli turlarga (bolalarga nisbatan zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, keksa oila a'zolariga nisbatan zo'ravonlik va boshqalar) ajratish muhimdir, aks holda, butun oiladagi zo'ravonlik muammosiga "kompleks" yondashuv tegishli umumlashtirishlar orqali faqat real vaziyatdan uzoqlashadi va uni tahlil qilish hamda qaror qabul qilishni murakkablashtiradi. Er-xotinning zo'ravonligi hodisasini ko'rib chiqayotganda, uni nafaqat oiladagi zo'ravonlikning butun majmuasidan ajratib olish, balki ikki jarayonni – erlarning xotinlarga nisbatan zo'ravonligi va xotinlarning erlarga nisbatan zo'ravonligini bir-biriga bog'lamaslik kerak.

Mamlakatimizda ayollarning eriga/birga yashayotganlariga/sheriklariga nisbatan zo'ravonlik muammosi quyidagi sabablarga ko'ra dolzarbdir: Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlar milliy, diniy qadriyatlar yo'nalishlari tizimining o'zgarishiga olib keldi, unga ko'ra, erkak endi oilaning asosiy ta'minlovchisi emas, har bir tomonning huquq va majburiyatlari bo'lib, oila ittifoqi egiluvchanlik bo'lib qoladi: bugungi kunda turmush o'rtoqlarning har biri uchun ma'lum bir rol ni qat'iy belgilash endi yo'q. Bundan tashqari,

90-yillarda sodir bo'lgan iqtisodiy inqiroz oqibatlarini tufayli XX asr boshqa MDH davlatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham shaxslararo munosabatlardagi keskinlikning umumiy kuchayishiga hissa qo'shdi, bunda ayollar tobora iqtisodiy faol, shu bilan birga, nikoh munosabatlarida o'zlarining keskin pozitsiyalari bilan harakat qilishga o'tadi. Xususan, ayollarning mehnat migratsiyasida faol bo'lishi, iqtisodiy mustaqillik, albatta, oilaviy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Asosiy qism. Oilaviy zo'ravonlikning paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablarini tushinishda oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va unda shakllangan qo'llab-quvvatlash funksiyasining rolini tahlil etish muhim. Oilada g'amxo'rlik va mehribonlik, tasalli, ijobiy muloqotning mavjudligi turli tashvish, xavotir, qo'rquv va ishonchsizlikni yengishga yordam berish, hissiy barqarorlikni yaratishga hamda empatiyani shakllantirishga ko'maklashadi. Bunday holda oila inson uchun uning qadr-qimmatini bo'lib xizmat qiladi, oilaviy turmush tarziga e'tibor qaratish bilan bog'liq "shaxsiy identifikatsiya yuzaga keladi". Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash funksiyasi doirasida zarur terapiyani amalga oshirish mumkin bo'lganda, oilaning psixologik yengillik mexanizmi sifatidagi ahamiyatini hisobga olish muhimdir.

Yosh oilaning o'ziga xos xususiyati shundaki, turmush o'rtoqlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan tashqari munosabatlarning psixologik sohasida ham qiyinchiliklarga duch kelishadi. Yosh oilada er-xotinlarning o'zaro munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari, ayniqsa, yosh o'zbek oilasida uning etnik, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin². Bu vaziyatda er yoki xotin tomonidan zo'rlik ishlatilishi ham mustasno emas. Oilaviy hayotga psixologik moslashish bosqichi oilani shakllantirish jarayonidagi asosiy bosqichlardan biridir: yosh turmush o'rtoqlar barcha muammolari bilan yolg'iz qoladilar yoki uchinchi shaxslar faol ravishda ularning shaxsiy hayotlariga aralashadilar. Oilaning saqlanishi va barqarorligi

² Юлдашев С., Норкулова Н. Низоли оилаларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 10-11 б.

ko'p jihatdan turmush o'rtoqlarning birgalikda boshlagan hayotining ilk yillarida yuzaga kelgan qiyinchiliklardan muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq, "...chunki ajralishlarning 70 foizi nikohning dastlabki 5 yilida sodir bo'ladi va oila buzilishining asosiy omillaridan biri bu zo'ravonlik muammosidir"³.

Oiladagi zo'ravonlik odatda "jimlik qoidasi" bilan yashirilgan mavzudur. Turmush o'rtog'ining agressivligi qurboni bo'lganini tan olishga osonlikcha qaror qilishi qiyin, bir muncha vaqt jimgina sabr qiladi. Oilaviy zo'ravonlikni boshdan kechirgan odam tushunmovchilik, hayratda qolish yoki achinarli ko'rinishlardan qo'rqadi va jim turishda davom etadi. Jimlik fonida vaziyat ko'pincha yomonlasha boshlaydi. Epizodlar tez-tez takrorlanadi, zo'ravonlik shakllari qattiqlashadi, hissiy zo'ravonlik jismoniy zo'ravonlikka aylanadi. Shakllarning xilma-xilligi mohiyatni o'zgartirmaydi, – zo'ravonlik uning barcha ishtirokchilari uchun fojia. Hamma azob chekadi – kimga qarshi qaratilgan bo'lsa ham, uni amalga oshirayotganlar ham (bir qarashda bunday emasdek tuyulsa ham), guvoh bo'lganlar ham, ayniqsa, bolalar.

Ishsizlikning o'sishi va keyinchalik yosh oilalarda shafqatsizlikning kuchayishi o'rtasida statistik bog'liqlik qayd etildi. Bu muammoni o'rganish qiyin va juda nozik masala hisoblanadi. Xuddi shu kabi yosh oila a'zolarining iqtisodiy mustaqilligini yo'qotish masalalari yetarlicha tahlil etilmagani ularni osongina maishiy zo'ravonlik qurboniga aylantirmoqda.

Yosh oilaning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillardan tashqari ko'plab axloqiy va psixologik qarama-qarshiliklar mavjud: "otalar va bolalar" munosabatlari, yolg'izlik, ma'naviyat va axloqning susayishi, o'zlikni yo'qotish, xudbinlik va boshqalar. Zamonaviy yosh oila muammolarini hal qilishga yolg'iz biror-bir idoraning kuchi yetmaydi, bu yerda davlat-jamiyat, jamiyat-davlat vakolati va mas'uliyati turadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun qulay sharoitlarda ham ko'p yillar talab etiladi.

Ko'pincha yosh turmush o'rtoqlar oilaviy hayotga tayyor emasligining guvohi bo'lamiz, ular oila ichidagi, shu jumladan, psixologik iqlimning

o'zgarishiga obyektiv hissa qo'shadigan bolaning paydo bo'lishi bilan tubdan yangi "vaziyat"ga moslasha olmaydilar, bu esa ko'pincha o'z-o'zidan yosh oilada noqulay psixologik muhitni shakllantiradi, turli muammolar va zo'ravonlik shakllari namoyon bo'lishiga olib keladi.

Oilaviy zo'ravonlik muammolari tobora kuchayib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, barcha og'ir zo'ravonlik jinoyatlarining 30-40 foizi oilada sodir bo'ladi. Oilada sodir etilgan og'ir zo'ravonlik qurbonlarining 70 foizi ayollar va bolalardir⁴.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2022-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axborotida 2022-yilda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 49 774 nafar xotin-qizga "himoya orderi" berilgan, oilaviy muammolar va turmushida zo'ravonlik ishlatilishiga duch kelgan 402 nafar xotin-qizlar Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirilgan⁵.

Er-xotinning zo'ravonligi masalasini ko'rib chiqayotganda uning namoyon bo'lishini aniq ajratib ko'rsatish kerak: ilgari ta'kidlanganidek, erkaklar ham, ayollar ham zo'ravonlikka duchor bo'lishi mumkin. Erkaklar ko'proq jismoniy kuch ishlatishadi, ayollar esa psixologik, lekin erkak o'z xotiniga nisbatan ham jismoniy, ham ruhiy zo'ravonlikni qo'llaganida va xotin eriga nisbatan xuddi shunday harakat qilganda sodir bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, psixologik va jismoniy zo'ravonlik bilan birga iqtisodiy va jinsiy zo'ravonlik ham uchraydi.

Oilaviy zo'ravonlikning keng tarqalgan shakllaridan biri jismoniy zo'ravonlikdir. Oilada ayolga nisbatan jismoniy zo'ravonlik gender munosabatlar bilan ta'riflanadi. Ayol erkakning oilada ustunligidan, agressivligidan aziyat chekadi va bu ko'p hollarda o'zbek milliy madaniyatida odatiy hol deb hisoblanadi. Shuningdek, ayollar oilaviy zo'ravonlikka qarshi qanday kurash olib borishni bilmaydilar. Zo'ravonlikka chidab yashashning sabablaridan biri erni yo'qotib qo'yish,

³ Ростовская Т.К. Профилактика насилия как фактор безопасности семьи: российский и казахстанский опыт / Т.К. Ростовская Т.Б. Калиев Н.Б. Завьялова В.А. Безвербный // Женщина в российском обществе. – 2018. – № 1(86). – С. 78–88.

⁴ Ростовская Т.К. Профилактика насилия как фактор безопасности семьи: российский и казахстанский опыт / Т.К. Ростовская, Т.Б. Калиев, Н.Б. Завьялова, В.А. Безвербный // Женщина в российском обществе. – 2018. – № 1(86). – С. 78–88.

⁵ https://iiv.uz/medianews/file_15-03-2023_071105.pdf

farzandlarni otasiz voyaga yetkazish, erga moliyaviy bog'liqlik va boshqalardir⁶.

Oilada ayolni tahqirlash, haqorat qilish, kamsitish uning emotsional-ruhiy holatiga kaltaklashdan ko'ra salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zida erkakning bunday munosabati sababini topish qiyin. Psixologlar ta'kidlaganidek, ko'pincha ayol umuman aybdor bo'lmashligi ham mumkin. Zolim odam o'z xotinini masxara qilish uchun sabablar izlaydi, boshqa odamlar hech qachon sezmaydigan har bir kichik narsaga e'tibor beradi.

Oiladagi zo'ravonlikning psixologik turiga jismoniy zo'ravonlik bilan tahdid qilish, shantaj qilish, ajrashish bilan qo'rqitish, bolalarni tortib olish bilan tahdid qilish, kesatib gapirish, ruhiy qo'rqitish kabilar kiradi.

Jamiyatda ayollarga nisbatan jinsiy xarakterdagi oilaviy zo'ravonlik ham keng tarqalgan. Oilaviy zo'ravonlikning bu turiga jinsiy aloqaga majburlash, uning buzuvchi shakllari, zo'rqlash, ya'ni jinsiy tahqirlash kiradi. Bu hodisa oilalarda sodir bo'ladi, unda erkak negadir zaif bo'g'inga aylanadi va buning aksini isbotlashni xohlaydi. Erkak o'z xotinining his-tuyg'ularini qaytarishga harakat qiladi, uni jinsiy xarakterdagi noqonuniy xatti-harakatlar bilan kamsitadi.

Oilada iqtisodiy zo'ravonlik ham mavjud bo'lib, u pul undirish, ishga borishni taqiqlash, moliyaviy daromadlarni yashirish va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Zo'ravonlik sodir etilgan yosh oilada zo'ravonlikning bitta turini ham, barcha turlarini ham birgalikda kuzatish mumkin. Aytish joizki, yosh oiladagi zo'ravonlik er tomonidan xotinga va aksincha, xotin tomonidan erga nisbatan zo'ravonlikning namoyon bo'lishi bir xil imkoniyatga egaligini ko'rish mumkin. Amaliyotda, afsuski, xotinning faol qo'zg'atuvchi xatti-harakati urning javobi tarzida agressivlikni keltirib chiqaradigan holatlar ham mavjud. Bunday holda erga nisbatan zo'ravonlik obyekti sifatida emas, balki manipulyatsiya obyekti deb qarash mumkin. Ijtimoiy hayotda muhim o'rinni egallamagan, o'zini past baholagan ayollar oilaviy zo'ravonlikning subyekti va tashabbuskori bo'lishi ham mumkin: ular o'z turmush o'rtoqlariga psixologik jihatdan ta'sir o'tkazishga harakat qilishadi. Xotin eriga

ta'sir o'tkazishda jismoniy kuch bilan emas, balki psixologik zo'ravonlik, ya'ni "ayol hiylasi" orqali erishadi. Tashqi tomondan bunday ayol kamtarlikni namoyon qiladi, o'zini o'ta sipo tutadi va ochiq agressivlikni ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, janjallarga moyil bo'lmagan, xotirjam tabiatli erkak o'ta faol, sershovqin, jahli tez, qattiqqo'l xarakterdagi ayolining ta'siri ostida qoladi.

Xotin eriga doimo o'z da'volarini bildiradi: u erining na maqsadlaridan, na ularga erishish yo'llaridan qoniqadi. Ayol ko'pincha erkak uchun muhim odamlar oldida unga ovozini ko'taradi. Muomalasiz ayol janjal paytida erini har xil keraksiz so'zlar bilan xafa qilishi, qarindoshlarini haqoratlashi qilishi yoki kamsitishi, jinsiz hayot tafsilotlari haqida noo'rin gaplarni aytishi ham kuzatilgan. Bu yerda zo'ravonlik erkakning oilada boshdan kechirgan nochorlik tuyg'usining o'rnini qoplash sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, bu ayolning uni o'z hukmiga bo'ysundirish istagi, uni nazorat qilish usullariga qarshi javobidir.

Yosh oilada bolalar ham zo'ravonlikdan aziyat chekishi mumkin. Ota-onalarning bolalarga nisbatan zo'ravonligi faqat kaltaklash bilan cheklanmaydi. Bola bilan muloqotda bo'lmagan, shuningdek, his-tuyg'ularini ushlab turish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmagan ota-onalar psixologik yoki axloqiy jazolardan foydalanadilar. Bunday zo'ravonlik turida ota-onalar bolani o'zlariga qaram deb munosabat qiladi va bola mutlaq qaram oila a'zosi sifatida ota-onalarning zo'ravon xatti-harakatlariga chidashga, moslashishga majbur bo'ladi.

Ko'pincha ota-onalar psixologik zo'ravonlikni "qat'iy tarbiya" deb atashadi. Bu kabi zo'ravonlikning ildizlari ota-onaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lish va o'z hukmini o'tkazishga intilishdir. O'z farzandlarini kamsitib, bolani doimiy nazorat qilishi, uning huquq va imkoniyatlarini cheklashi bolani boshqarish hamda o'ziga buysundirishdan boshqa narsa emas.

Farzand tarbiyasida tez-tez uchrab turadigan yana bir salbiy holat bu haddan tashqari homiylik va bolaning inijliklari bilan kelishish, uni mustaqilligidan mahrum qilish, unga qo'yiladigan talablarni haddan tashqari pasaytirish ham psixologik zo'ravonlik turlaridan biridir: shu tariqa ota-onalar bolani ularning yordamisiz u hech narsaga erisholmaydi, degan fikrga o'rgatadi.

Shunday qilib, ota-ona bilvosita bolaning qobiliyatiga ishonchsizlik va umidsizlikni bildiradi.

⁶ Алневас К. Жамият "хазм қилаётган" оилавий зуъравонлик// <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/9588/>

Bunday bolalarda mustaqillikka intilish paydo bo'lmaydi, xarakterning irodalilik, maqsadlilik, qat'iyatlilik kabi fazilatlar rivojlanmaydi. Natijada ota-onalar bolani sun'iy ravishda o'zlariga "bog'lab" qo'yadilar, umrining oxirigacha ularning vasiyligiga, ma'naviy va moddiy yordamiga tayanishga hamda qaram bo'lishga majbur qiladi.

Oiladagi zo'ravonlik "irsiy" bo'lishga moyilligi bilan xavflidir⁷. Zo'ravonlik muhitida o'sgan bolalar o'z turmush o'rtog'i va farzandlariga nisbatan zo'ravonlik tajribasi o'tkazishni boshlaydilar. Shafqatsiz muhit shakllanadi, undan hatto samimiy istak bilan ham qochib bo'lmaydi. Oila tizimida zo'ravonlikning aylanishi yangi zo'ravonlik harakatlarining sababi va natijasi bo'lib, oila tizimining o'zi zo'ravonlik siklining yana takrorlanishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Agar muammo hal etilmasa, vaqt o'tishi bilan vaziyat yomonlashadi va bunday noto'g'ri yondashuv oilaning barcha a'zolari uchun tobora shafqatsiz va og'riqli bo'ladi.

Xulosa. Er-xotinning zo'ravonligi zamonaviy o'zbek jamiyatining murakkab va nozik muammolaridan biridir. Oiladagi zo'ravonlik erkaklar va ayollar tomonidan sodir etilishiga qaramay, ko'plab tadqiqotlarda faqat ayollarga e'tibor qaratish inqirozli vaziyatga mos kelmaydigan xulosalarga olib keladi. Aytish joizki, er-xotinning zo'ravonligi muammosida kim aybdor va kim aybdor emas, kimning zo'ravonligi isbotlanishi kerak va kimniki esa aksincha – asosli ekanligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi zo'ravonlikni kamaytirish uchun konstruktiv yechim izlashga va oilada tajovuzkorlik, shafqatsizlik darajasini kamaytirish yoki bartaraf etishga to'sqinlik qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, er-xotin munosabatidagi zo'ravonlik fenomenini tushunishga noto'g'ri yondashuv mavjud, unga ko'ra, erkak aslo "jabrlanuvchi" toifasiga kira olmaydi, bu bir qator omillarga bog'liq, jumladan:

- zo'ravonlik muammosi bo'yicha tadqiqotlarning yetishmasligi;
- ayollarni zaifa hisoblab, ular tomonidan zo'ravonlik sodir etilmaydi, degan hukmron madaniy stereotiplar;

- ayollar zo'ravonligi muammosi bo'yicha tadqiqotlar yo'qligi;

- oilaviy zo'ravonlik vaziyatida, asosan, ayollardan er-xotinning zo'ravonlik holatlari to'g'risida ma'lumot olish;

- ayolning agressiv yoki shafqatsiz munosabatini faqat o'zini himoya qilish sifatida qarash;

- er-xotin munosabatidagi zo'ravonlikda mahalliy hamjamiyat va ommaviy axborot vositalarida ayollarni qo'llab-quvvatlash kabi omillar oilada yuzaga kelgan inqiroz haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi.

Shunday qilib, yosh oiladagi zo'ravonlik muammosining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Har bir yigit-qiz borki, u turmush qurganda o'z oilasidan olgan ma'lumotlar, asosida, o'z oilasini yaratishga intiladi. Odatiy xatti-harakatlar yosh oilaning haqiqiy hayotida mustahkam o'rnatilgan va ular ko'pincha u uchun halokatli bo'lsa-da, turmush o'rtoqlar xatti-harakatlarini o'zgartirish oqibatlaridan qo'rqishadi. Shu bois yosh oilani inqirozli vaziyatdan olib chiqishning samarali usullaridan biri – bu kognitiv xulq-atvor terapiyasi elementlarini mujassamlashtirgan ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish. Trening formati ishtirokchilarga o'zini tutishning yangi usullarini sinab ko'rish va xavfsiz muhitda o'zaro munosabatlarning inqirozli vaziyatlariga javob berish imkonini yaratadi. Psixolog-trener ishtirokida va rahbarligida yangi bilimlar, xulq-atvor namunalarini mustaqil ravishda o'rganish ularni yosh oilaning haqiqiy hayotni tezda o'zlashtirishiga hamda samarali qo'llashni boshlashiga imkon va yordam beradi, turmush o'rtoqlarning tashvishlarini kamaytiradi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada yosh oilada zo'ravonlikning oldini olish, mavjud oila ichidagi vaziyatni to'g'rilash vazifasi bajariladi.

Yosh oilalardagi zo'ravonlik muammosi har zamonda har bir jamiyat va davlatning jiddiy e'tiborini talab qilib kelgan. Jamiyatda oilaviy zo'ravonlik tendensiyalarini zaiflashtirish yo'llarini izlash, oila ichidagi zo'ravonlik holatlari va darajasini kamaytirish uchun nizolarni ijtimoiy psixologik usullar orqali hal qilish mexanizmlarini tahlil qilish hamda takomillashtirish muhimdir.

Yangi O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlikning oldini olish kompleks vazifa sifatida ko'rib chiqilishi kerak:

⁷ Безвербная Н.А., Шевцова О.С., Насилие в молодой семье как социальный феномен. // https://elibrary.ru/download/elibrary_36901265_49091775.pdf

1. Shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olishga va har bir oila a'zosining fuqaro sifatida hayoti, erkinligi va qadr-qimmatini himoya qilish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish.

2. OAVda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi, jumladan, oilaviy zo'ravonlik qurboni sifatida faqat ayollar emas, balki erkaklarning ham muammolarga uchrashi haqida ma'lumotlar berib borish.

3. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va oilada gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan

ijtimoiy-psixologik profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Mamlakatimizda oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha davlat siyosati aniq va mustahkam yo'nalishdadir. Shunday ekan, oiladagi zo'ravonlik muammolarini batafsil ko'rib chiqish uchun nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, huquqshunoslik, falsafa va boshqa fanlarning nazariy-amaliy bilimlarini jalb qilish va multiditsiplinar yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/>
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарорига 1-илова. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш Концепцияси // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/>
3. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар қамолатлари тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/>
4. Алиева К. Жамият “ҳазм қилаётган” оилавий зўравонлик// <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/9588/>
5. Ismaylova R. [Theoretical and practical approaches in the study of social psychological factors of domestic violence](#)// The II International Science Conference «Issues of practice and science», September 27–29, London, Great Britain. – 210 p.
6. Ismaylova R., Ikramova K. Protection mechanisms and coping strategy: Opportunities and limits // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2022, Volume: 12, Issue: 4 First page: (450) Last page : (453) Online ISSN : 2249-7137. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00302.0
7. Egamberdiyeva N.M., Tuychiyeva G.G., Ismaylova R.N. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish. – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 144 b.
8. Разорвать круг молчания. О насилии в отношении женщин / Под ред. Н.М. Римашевской. – М.: КомКнига, 2006. – 352 с.
9. Ростовская Т.К. Профилактика насилия как фактор безопасности семьи: российский и казахстанский опыт / Т.К.Ростовская, Т.Б.Калиев, Н.Б.Завьялова, В.А.Безвербный // Женщина в российском обществе. – 2018. – № 1(86). – С. 78–88.
10. Юлдашев.С., Н.Норкулова. Низоли оилаларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 68 б.
11. https://iiv.uz/medianews/file_15-03-2023_071105.pdf